

2022- yil uchun Buxoro viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

YAHM hajmi,
mlrd. so'm

45 797,3

YAHM o'sish
sur'ati

104,4 %

YAHM deflyator
indeksi

114,4 %

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil uchun Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 45797,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yil bilan taqqoslaganda 4,4 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yil narxlariga nisbatan 114,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 5,2 % ga yetdi.



**2022- yil uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM
ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
I. YAHM, jami	38 350,1	45 797,3	104,4
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	36 931,7	43 762,5	104,3
mahsulotlarga sof soliqlar	1 418,4	2 034,8	107,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	36 931,7	43 762,5	104,3
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	16 807,7	19 564,8	103,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	9 231,3	11 460,4	104,2
sanoat	6 086,1	7 883,6	106,2
qurilish	3 145,2	3 576,8	100,2
xizmatlar	10 892,7	12 737,3	105,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 632,3	3 295,9	110,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 023,8	2 344,2	109,0
boshqa xizmat tarmoqlari	6 236,6	7 097,2	102,3



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 22 975,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,8 % ga yuqoridir.

**Aholi jon boshiga hisoblangan
YAHMning o'sish sur'atlari**
*(o'tgan yilning mos davriga
nisbatan % hisobida)*



**Aholi jon boshiga hisoblangan
YAHM hajmi**
(ming so'mda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,3	95,6
mahsulotlarga sof soliqlar	3,7	4,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	45,5	44,7
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	25,0	26,2
sanoat	16,5	18,0
qurilish	8,5	8,2
xizmatlar	29,5	29,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,1	7,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,5	5,4
boshqa xizmat tarmoqlari	16,9	16,2

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2021- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

45,5%

Sanoat

16,5%

Qurilish

8,5%

Xizmatlar

29,5%

2022- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

44,7%

Sanoat

18,0%

Qurilish

8,2%

Xizmatlar

29,1%

2022- yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,4 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 44,7 % ni, sanoat tarmog'i 18,0 % ni, qurilish 8,2 % ni va xizmatlar sohasi 29,1 % ni tashkil qildi.



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

2022- yil uchun YAHM o'sishida
tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

YAHM



4,4

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik
xo'jaligi



1,5

Sanoat



1,0

Xizmatlar



1,6

Mahsulotlarga
sof soliqlar





0,3

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,5 f.p. (2021- yilda – 2,2 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,0 f.p. (2021- yilda – 0,0 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,6 f.p. (2021- yilda – 3,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2021- yilda – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.



YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2022- yil uchun YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,6%(YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 44,7 %), sanoatda – 106,2 % (18,0 %), qurilishda – 100,2 % (8,2 %), xizmatlar sohasida – 105,5 % ni (29,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,5 % (7,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 109,0 % (5,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,3 % dan (16,2 %) iborat bo'ldi.




YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi


(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHM



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




2022- yilning YAHM deflyatori indeksi 2021- yildagi narxlarga nisbatan 114,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 122,0 % va qurilishda – 113,4 % qayd etildi.




Qurilish



Xizmatlar



Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)



2022- yilda kichik tadbirkorlik 32 414,6 mlrd. so‘mni tashkil etib (2021- yilda – 28 038,8 mlrd. so‘m), YAHMdagi ulushi 74,1 %ni tashkil qildi (2021- yilda – 75,9 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

